O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI HOKIMINING
QARORI

200118. Buxoro viloyati, Buxoro shahri, I.Mo’minov ko’chasi 1-uy. Tel.:(365) 224-34-85, Faks: 223-05-95 e-mail: info@buxoro.uz, buxoro@exat.uz

2023 - yil 27 - dekabr 527-2-0-Q/23 Buxoro viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PF-210-sonli “Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat tamoyillarini keng joriy etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PF-210-sonli “Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnattamoyillarini keng joriy etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PF-210-sonli “Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnattamoyillarini keng joriy etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:

Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish milliy komissiyasi **Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo‘yicha milliy komissiya** (keyingi o‘rinlarda - Milliy komissiya) etib qayta tashkil qilinganligi va uning tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Milliy komissiya:

ichki ishlar vaziri - Milliy komissiya raisining o‘rinbosari rahbarlik qiladigan Odam savdosiga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha kichik komissiyadan;

kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri - Milliy komissiya raisining o‘rinbosari rahbarlik qiladigan Munosib mehnat masalalari bo‘yicha kichik komissiyadan iborat bo‘lishi belgilanganligi;

Milliy komissiyaning asosiy vazifalari belgilab berilganligi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar (shaharlar) hokimlari zimmasiga Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo‘yicha hududiy komissiyalarga (keyingi o‘rinlarda – hududiy komissiyalar) rahbarlik qilish vazifasi yuklatilganligi;

Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish bo‘yicha milliy ma’ruzachi instituti negizida Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo‘yia milliy ma’ruzachi (keyingi o‘rinlarda – Milliy ma’ruzachi) instituti ta’sis etilganligi, uning funksiyalari Milliy komissiya raisi zimmasiga yuklanganligi hamda Milliy ma’ruzachining asosiy vazifalari

belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Odam savdosi qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo‘yicha Buxoro viloyati hududiy komissiyasining tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Viloyat hududiy komissiyasi (Miralimov, Xamroyev) odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat tamoyillarini joriy etish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va Milliy komissiyaning taqdimnomalarini viloyatda so‘zsiz, o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlasin.

4. Tumanlar va shaharlar hokimlari zimmasiga Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo‘yicha tuman, shahar hududiy komissiyalariga rahbarlik qilish vazifasi yuklansin.

5. Viloyat hokimining 2019 yil 2 avgustdagi “Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 407-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qaror ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Buxoro viloyati hokimi **B.K.Zaripov**

Buxoro viloyat hokimining
2023-yil 27-dekabrdagi
527-2-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Odam savdosi qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo‘yicha Buxoro viloyati hududiy komissiyasining

TARKIBI

B.Zaripov	-	viloyat hokimi, ***hududiy komissiya raisi***
M. Miralimov	-	viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i, hududiy komissiyasi raisining o‘rinbosari – Odam savdosiga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha kichik komissiya rahbari
A.Xamroyev	-	viloyat kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig‘i, hududiy komissiya raisining o‘rinbosari – Munosib mehnat masalalari bo‘yicha kichik komissiya rahbari
M. Istamov	-	viloyat prokurori
Z.Ibrohimov	-	Davlat xavfsizlik xizmati viloyat boshqarmasi boshlig‘i (kelishuv asosida)
F.Ibragimova	-	viloyat hokimining o‘rinbosari - Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig‘i
U. Ro‘ziyev	-	viloyat sudining raisi (kelishuv asosida)
A.Axmedov	-	viloyat ma’muriy sudi raisi (kelishuv asosida)
A. Raxmatov	-	viloyat adliya boshqarmasi boshlig‘i
O‘.Nadjmiddinov	-	viloyat yoshlar siyosati va sport bosh boshqarmasi boshlig‘i
A.Huseynova	-	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman)ning viloyatdagi vakili
B.Adilov	-	viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i
H.Fayziyev	-	O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligining Buxoro shahridagi hududiy bo‘linmasi rahbari (kelishuv asosida)
A.Baxronov	-	viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i
J.Jurayev	-	Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi Buxoro viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari
M.Olimov		viloyati kasaba uyushmalari Kengashi raisi
I. Yuldashev		“O‘zto‘qimachiliksanoati” uyushmasi viloyat filiali boshlig‘i
L.Karimova	-	Respublika “Istiqbolli avlod” ijtimoiy axborot markazi Buxoro viloyati bo‘limi direktori (kelishuv asosida)
A.Jumayev	-	viloyat ichki ishlar boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i - Odam savdosiga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha kichik komissiya mas’ul kotibi
Sh.Rajabov	-	viloyat kambag‘allik qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi davlat mehnat nazorat inspeksiyasi boshlig‘i - Majburiy mehnatga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha kichik komissiyasi mas’ul kotibi

Izoh: hududiy komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibi ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.